INTEGRATSIYA VA UNING XALQARO IMIJGA TA'SIRI

Bektosh Berdiyev

Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Annotatsiya. Mazkur maqola integratsiya jarayonlari va ularning davlat yoki mintaqaning xalqaro imijiga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy tahliliga bag'ishlangan. Zero, globallashuv sharoitida davlatlarning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzi, faqatgina ularning harbiy, moliyaviy, geosiyosiy, texnologik va iqtisodiy qudrati bilan emas, balki ularning hamkorlikka ochiqligi, intilishlari, tinchlikparvarligi, institutsional va siyosiy barqarorligi, madaniy va turistik jozibadorligi, diplomatik faolligi kabilar bilan ham belgilanadi. Integratsiya – iqtisodiy, siyosiy, madaniy va xavfsizlik sohalarida yaqinlashuv jarayoni sifatida bugungi kunda har qanday mamlakatning xalqaro hamjamiyat oldidagi ishonchliligini va jozibadorligini oshiruvchi omillardan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *integratsiya, xalqaro imij, yumshoq kuch, mintaqaviy hamkorlik, davlat brendi, tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar*

Abstract. This article is devoted to a scientific analysis of integration processes and their impact on the international image of a state or region. In the context of globalization, the reputation and prestige of states in the international arena are determined not only by their military, financial, geopolitical, technological, and economic power, but also by their openness to cooperation, commitment to peace, institutional and political stability, cultural and tourism attractiveness, and diplomatic activity. Integration, as a process of rapprochement in the economic, political, cultural, and security spheres, is considered one of the key factors that enhances a country's reliability and attractiveness in the eyes of the international community.

Keywords: *integration, international image, soft power, regional cooperation,*

state branding, foreign policy, international relations.

XXI asrda shakllangan xalqaro munosabatlar tizimida davlatlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning xalqaro imiji, ya’ni boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar, investorlar, mamlakat va mintaqaga kelib-ketadigan sayyohlar, mamlakat va mintaqa hayotini doimiy kuzatadigan ekspertlar, olimu-tadqiqotchilar va jahon jamoatchiligi tomonidan qanday qabul qilinishiga har tomonlama bog‘liqdir. Ma’lumki, har qanday mamlakatning xalqaro imiji uning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy salohiyati, farovonligi, imkoniyatlari, ma’naviy va madaniy merosi hamda unga munosabati, diplomatik pozitsiyasi va global muammolarga yondashuvi orqali shakllanadi. Ushbu imijni yanada mustahkamlashda esa integratsiya jarayonlari va unda davlatning ishtiroki muhim vosita hisoblanadi.

Zero integratsiya aytib o‘tganimizdek davlatni yopiq va alohida harakat qiluvchi subyekt emas, balki jahon hamjamiyati bilan hamkorlikka tayyor, xalqaro huquq qoidalariga doimiy rioya qiluvchi va umumjahon manfaatlar asosida faoliyat yurituvchi ishonchli sherik sifatida namoyon etadi. OECD ma’lumotlariga ko‘ra, xalqaro tartibga solish bo‘yicha hamkorlik savdo, investitsiya va iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Integratsiya tushunchasi va uning mohiyati haqida gapirganda, shuni alohida qayd etish lozimki, lotincha “integratio” so‘zidan olingan bu termin, “birlashish”, “yaxlitlashish” degan ma’nolarni anglatadi. Xalqaro munosabatlarda qo‘llaniladigan integratsiya esa davlatlar, xalqlar va millatlar o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy va xavfsizlik sohalarida yaqin hamkorlikni, o‘zaro do‘stlik va ahillik asosida birlashiladigan jarayonni anglatadi.

Davlatlararo integratsiyaning asosiy shakllarini esa biz quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

Iqtisodiy integratsiya – erkin savdo hududlari, bojxona ittifoqlari, umumiy

bozorlar va iqtisodiy ittifoqlar, investitsiyalar oqimining kuchayishi, o‘zaro savdo va kapitalning o‘sishi orqali amalga oshadi.

Siyosiy integratsiya – davlatlar o‘rtasida umummilliy siyosiy institutlarning vujudga kelishi, maslahatlashuv mexanizmlari va kelishilgan tashqi siyosat yo‘nalishlarini shakllantiradi.

Madaniy-gumanitar integratsiya – ta’lim, fan, san’at, turizm va madaniy almashinuv orqali xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni kuchaytiradi.

Xavfsizlik sohasidagi integratsiya – terrorizm, transmilliy jinoyatchilik, millatchilik, separatism, ekologik xavfla, transchegaraviy muammolar va boshqa tahdidlarga qarshi birgalikda kurashishni nazarda tutadi.

Mazkur yo‘nalishlarning barchasi davlatning xalqaro maydondagi qiyofasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro imij tushunchasi haqida gapirganda, shularni alohida qayd etishimiz lozimki, **xalqaro imij** – bu davlat yoki mintaqaning xalqaro auditoriya ongida, jahon hamjamiyati tafakkurida, dunyoqarashida shakllangan umumiy ijobiy tasavvurlardir. Aynan u davlatning tashqi va ichki siyosiy yutuqlari, iqtisodiy taraqqiyoti, madaniy yukaslganligi, davlar va jamiyat boshqaruvining sifati va samaradorligi, rivojlangan inson kapitali va jahon global siyosiy, iqtisodiy, madaniy, investitsion jarayonlaridagi ishtiroki orqali shakllanadi va mustahkamlanadi.

Bugungi kunda xalqaro imij “yumshoq kuch” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Misol uchun AQSHlik taniqli siyosatshunos Joseph Nye tomonidan ilgari surilgan yumshoq kuch konsepsiyasiga muvofiq, davlatlar boshqa subyektlarga faqat majburlash yoki iqtisodiy bosim orqali emas, balki jozibadorlik, qadriyatlar va ishonch orqali ta’sir ko‘rsatishi samarali bo‘lishi mumkun. Davlat brendi va yumshoq kuch o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘plab tadqiqotlarda alohida o‘rin egallaydi va bu alohida e’tirof etiladi.

Shu nuqtai-nazardan ham, integratsiya xalqaro imijni shakllantirishda “yumshoq kuch” vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Hamkorlikka ochiq davlat odatda barqaror rivojlanishga moyil, ishonchli va konstruktiv hamkorlikka intiluvchi sub’ekt sifatida baholanadi.

Endi, bevosita integratsiyaning xalqaro imijga ijobiy ta’siri haqida so‘z yuritsak:

1. Davlatning ishonchli hamkor sifatida tanilishi. Integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etuvchi davlat xalqaro maydonda o‘zining ochiqligi va hamkorlikka tayyorligini namoyish etadi. Bu esa uning diplomatik obro‘sini oshiradi. Masalan, mintaqaviy tashkilotlar, savdo bitimlari yoki xalqaro institutlar doirasidagi faol ishtirok davlatni mas’uliyatli va kelishuvlarga sodiq subyekt sifatida ko‘rsatadi.

Bunday imij xorijiy investorlar, xalqaro moliya institutlari va strategik hamkorlar uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki ular barqaror, xalqaro qoidalarga amal qiluvchi va oldindan bashorat qilinadigan siyosat yurituvchi davlatlar bilan hamkorlik qilishga intiladi.

2. Iqtisodiy jozibadorlikning oshishi. Iqtisodiy integratsiya mamlakatning xalqaro bozorlarga chiqishini yengillashtiradi, savdo aloqalarini kengaytiradi va investitsiya oqimini kuchaytiradi. Savdo to‘siqlarining kamayishi, transport-logistika tizimining rivojlanishi va umumiy standartlarning joriy etilishi davlatning iqtisodiy imijini yaxshilaydi.

OECD mintaqaviy integratsiya bo‘yicha hisobotlarida savdo bitimlari, savdoni yengillashtirish, qo‘shilgan qiymat zanjirlari va raqamli savdo integratsiyani baholashdagi muhim ko‘rsatkichlar sifatida keltiriladi. Bu esa integratsiya nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki mamlakatning xalqaro iqtisodiy brendiga ham ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

3. Davlatning iplomatik nufuzi ortishi va kuchayishi. Integratsiya davlatning xalqaro tashkilotlar va ko‘p tomonlama platformalardagi mavqeini mustahkamlaydi. Bunday davlatlar mintaqaviy muammolarni hal qilish, tinchlikni saqlash, ekologik

xavfsizlik, migratsiya va iqtisodiy taraqqiyot bo‘yicha tashabbuslar bilan chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Natijada mamlakat faqat o‘z manfaatini ko‘zlovchi subyekt emas, balki umumiy barqarorlik va taraqqiyotga hissa qo‘shuvchi faol ishtirokchi sifatida qabul qilinadi. Bu esa xalqaro imijning ijobiy shakllanishiga xizmat qiladi.

4. Madaniy va gumanitar aloqalarning kengayishi. Integratsiya faqat iqtisodiy yoki siyosiy jarayon emas. U xalqlar o‘rtasidagi madaniy muloqotni ham kuchaytiradi. Ta’lim almashinuvlari, ilmiy loyihalar, turizm, madaniyat kunlari va xalqaro festivallar mamlakat haqidagi ijobiy tasavvurlarni kengaytiradi.

Madaniy-gumanitar integratsiya davlatning “insoniy qiyofasi”ni namoyon etadi. Jahon jamoatchiligi mamlakatni nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali, balki uning madaniyati, qadriyatlari, mehmondo‘stligi va intellektual salohiyati orqali ham baholaydi.

5. Davlat brendining mustahkamlanishi

Integratsiya davlat brendini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Davlat brendi – bu mamlakatning xalqaro auditoriya oldidagi umumiy obro‘si, jozibadorligi va farqlanuvchi xususiyatlaridir. Tadqiqotlarda davlat brendi diplomatiya va yumshoq kuchning muhim vositasi sifatida talqin qilinadi.

Integratsiyada faol davlat o‘zini ochiq, zamonaviy, ishonchli va hamkorlikka tayyor mamlakat sifatida ko‘rsata oladi. Bu esa uning turizm, eksport, ta’lim, investitsiya va madaniy aloqalari rivojiga jiddiy ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Integratsiyaning salbiy yoki murakkab ta’sirlari ham bo‘lib, odatda mutaxassislar bu haqda kam so‘z yuritadilar. Masalan: Integratsiya har doim ham faqat ijobiy natija bermaydi. Ayrim hollarda u xalqaro imij uchun muayyan xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Birinchidan, integratsiya jarayonida davlat o‘z milliy manfaatlarini yetarlicha himoya qila olmaydi. Sabab, umummilliy institutlar va tuzilmalar bu vazifalarni o‘z

nazoratiga oladi. Bu holat esa, ichki auditoriyada norozilikni kuchaytirish ehtimolining ham asosiy motivlaridan biri bo'lishi ham mumkin. Unday holatlar esa xalqaro maydonda siyosiy beqarorlik belgisi sifatida talqin qilinadi.

Ikkinchidan, integratsion tuzilmalardagi tengsizlik yoki kuchli davlatlar ta'sirining ortishi kichik davlatlar imijiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday holatda davlat mustaqil tashqi siyosat yuritish qobiliyatini yo'qotayotgandek ko'rinadi.

Uchinchidan, integratsion majburiyatlar bajarilmasa, xalqaro ishonch pasayadi. Ya'ni davlat xalqaro kelishuvlarga qo'shilib, lekin ularni amalda bajarmasa, bu uning imijiga zarar yetkazadi. Shu sababli integratsiya puxta strategiya, milliy manfaatlar muvozanati va samarali diplomatik boshqaruv asosida olib borilishi zarur.

O'zbekiston misolida integratsiya va xalqaro imij borasida so'z yuritganda, alohida e'tiborga olish lozim bo'lgan jihatlar ham borligini qayd etish lozim. Misol uchun, O'zbekiston so'nggi yillarda mintaqaviy hamkorlik, qo'shni davlatlar bilan ochiq muloqot, transport-logistika aloqalarini rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik va iqtisodiy ochiqlik siyosati orqali o'z xalqaro imijini mustahkamlashga intilmoqda va bularning aniq samarasini, natijalarini ham ko'rib turibmiz.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona munosabatlarning rivojlanishi, savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi, xalqaro investitsion forumlar va madaniy diplomatiya tashabbuslari O'zbekistonni mintaqada konstruktiv hamkor sifatida ko'rsatmoqda.

Bu jarayon mamlakatning xalqaro imijiga bir necha yo'nalishda ijobiy ta'sir qiladi:

1. O'zbekiston mintaqaviy barqarorlik tarafdori sifatida ko'rinadi;
2. xorijiy investorlar uchun ochiq bozor sifatida namoyon bo'ladi;
3. turizm va madaniy meros orqali yumshoq kuch salohiyati ortadi;
4. xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik diplomatik nufuzni oshiradi.

Demak, integratsiya O‘zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki xalqaro imijni mustahkamlash vositasi hamdir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, integratsiya davlatning xalqaro imijiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omildir. U mamlakatni ochiq, ishonchli, barqaror va hamkorlikka tayyor subyekt sifatida namoyon etadi. Iqtisodiy integratsiya investitsion jozibadorlikni oshirsa, siyosiy integratsiya diplomatik nufuzni kuchaytiradi. Madaniy-gumanitar integratsiya esa davlatning yumshoq kuch salohiyatini rivojlantiradi.

Biroq integratsiya jarayonlari milliy manfaatlar, suverenitet, iqtisodiy xavfsizlik va ichki barqarorlik bilan uyg‘un holda olib borilishi lozim. Faqat shundagina integratsiya xalqaro imijni mustahkamlovchi samarali strategik vositaga aylanadi.

Umuman olganda, globallashuv davrida xalqaro maydonda ijobiy imijga ega bo‘lish uchun davlatlar yakkalanish emas, balki o‘zaro manfaatli integratsiya, ochiq diplomatiya va samarali hamkorlik yo‘lidan borishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 26.12.2025. https://president.uz/en/lists/view/8834
2. Berdiev, B. (2024). Image of the Armed Forces in the Context of Socio-Political Changes. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 5(1), 201-205.
3. Yunusov, K., Berdiyev, B., & Jovliev, B. (2024, May). A Well Structured System for Learning and also Evaluating the Outcome for the Better Learning using Artificial Intelligence in Higher Pedagogy. In 2024 4th International Conference on Advance Computing and Innovative Technologies in Engineering (ICACITE) (pp. 857-861). IEEE.
4. Berdiyev, B. O. (2022). Mamlakat barqarorligini ta’minlash masalalari va davlatning xalqaro imidji masalalari. ORIENTAL RENAISSANCE: Innovative,

educational, natural and social sciences, 2(12), 437-442.